

**YURIDIK SHAXSLAR (TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI)GA AJRATILADIGAN
KREDITNING QAYTMASLIK XATARINI SUG'URTALASH BO'YICHA BOSH
SUG'URTA SHARTNOMASI**

№ 0100/5021/12509444

“31” iyul 2025 yil

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan 2022-yil "22"-noyabrdagi 049696-sonli (SF-00010) litsenziyasiga asosida faoliyat yurituvchi "**Kapital Sug'urta**" AJ (keyingi o'rnlarda – **Sug'urtalovchi**) nomidan ustav asosida harakat qiluvchi Bosh direktor **X.A.Bo'rixo'jaev** bir tomondan hamda bundan keyingi matnlarda "**Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi**" deb yuritiluvchi "**Biznesni rivojlantirish banki**" ATB nomidan 2025-yil 17-iyuldaggi 49-sonli Ishonchnomaga asosida harakat qiluvchi bank Kredit bosh direktori **B.K.Mullajanov** ikkinchi tomonidan, birgalikda "Tomonlar" va alohida "Tomon" deb yuritiluvchilar, mazkur kreditning qaytmaslik xatarini sug'urtalash bo'yicha Bosh sug'urta shartnomasi (keyingi o'rnlarda – sug'urta shartnomasi)ni quyidagilar haqida tuzdilar.

I. SHARTNOMADA QO'LLANILGAN ATAMALAR

Mazkur sug'urta shartnomasida foydalanilgan atamalar quyidagi ma'nolarga ega:

Sug'urtalovchi – umumiy sug'urta sohasining tegishli klasslari bo'yicha sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovoni to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti va uning nomidan faoliyat yurituvchi filiallari.

Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi – Sug'urtalovchi bilan mazkur sug'urta shartnomasini tuzgan, Qarz oluvchiga ajratilgan kreditning qaytmaslik xatarini sug'urtalash bo'yicha Sug'urtalovchi bilan aniq sug'urta munosabatlariga kiruvchi tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxs – "**Biznesni rivojlantirish banki**" ATB va uning nomidan faoliyat yurituvchi filiallari (*bank xizmatlari ofisi va markazlari*).

Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urta qildiruvchi – "Biznesni rivojlantirish banki" ATB hisoblanadi.

Qarz oluvchi – Naf oluvchi bilan kredit shartnomasini tuzgan va mazkur sug'urta shartnomasiga qo'shilgan (*Anketa-arizani imzolagan yoki ommaviy ofertani akseptlagan*), sug'urta shartnomasida kelishilgan sug'urta mukofotini to'lovchi yuridik shaxs yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar (Naf oluvchining mijozlari).

Kredit shartnomasi – Naf oluvchi hamda Qarz oluvchi o'rtasida kredit, mikrokredit, overdraft va boshqa turdag'i kreditlar ajratish bo'yicha onlayn/oflayn ravishda tuzilgan shartnoma bo'lib, unga ko'ra Naf oluvchi kredit shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va shartlarda pul mablag'lari (kredit)ni Qarz oluvchiga taqdim etish, Qarz oluvchi esa kredit va unga hisoblangan foizlar hamda boshqa to'lovlarni kredit shartnomasida belgilangan muddatlarda va miqdorlarda qaytarish majburiyatlarini oladi.

Sug'urta shartnomasi – mazkur sug'urta shartnomasi bo'lib, unga ko'ra Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasida belgilangan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan voqeа (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda, Naf oluvchiga sug'urta tovonini to'lash majburiyatini oladi.

Anketa-ariza – Qarz oluvchi tomonidan imzolangan, mazkur sug'urta shartnomasining barcha shartlari bilan tanishib chiqqanligi, o'z ixtiyori bilan sug'urta shartnomasiga butunlay qo'shilishini hamda sug'urta shartnomasi bo'yicha huquq va majburiyatlarni qabul qilganligini tasdiqlovchi hujjat. Anketa-ariza sug'urta shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadi va 1-ilovasiga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Ommaviy oferta – Mazkur sug'urta shartnomasining barcha asosiy shartlarini o'z ichiga olgan, javob qaytargan har qanday shaxs bilan ushbu taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida shartnoma tuzishga bo'lgan xohish-irodasi haqidagi Sug'urtalovchining taklifi. Ommaviy oferta sug'urta shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadi va 2-ilovasiga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Sug'urta summasi – Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchining ushbu sug'urta shartnomasi bo'yicha Naf oluvchi oldidagi majburiyatları hajmining chegarasini o'zida aks ettiruvchi pul mablag'lari miqdori.

Sug'urta tovoni – Sug'urta shartnomasi (ommaviy oferta)da nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda, Naf oluvchiga sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'lari summasi.

Sug‘urta mukofoti – Qarz oluvchi yoki qonunchilikda ta’qiqlanmagan boshqa shaxslar tomonidan sug‘urta shartnomasi (ommaviy oferta)da belgilangan tartibda va muddatda Sug‘urtalovchiga to‘lashi shart bo‘lgan sug‘urta haqi.

Sug‘urta polisi – Sug‘urta shartnomasi (ommaviy oferta) tuzilganligini hamda Sug‘urtalovchining sug‘urta tovonini to‘lash bo‘yicha majburiyatlarini kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat. Sug‘urta polislari Sug‘urtalovchi tomonidan Qarz oluvchining murojaatiga asosan har bir kredit shartnomasi bo‘yicha alohida rasmiylashtirib beriladi.

Sug‘urta hodisasi – sug‘urta muddatida yuzaga kelgan, kredit shartnomasi bo‘yicha Qarz oluvchining zimmasiga oлган majburiyatlarini bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, ya’ni ajratilgan kredit bo‘yicha to‘lovlarni kredit shartnomasida belgilangan shartlar va muddatlarda to‘lamaganligi hisoblanadi.

Kutish davri – sug‘urta hodisasi yuzaga kelgandan so‘ng boshlanadigan va mazkur sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan muddat.

Zarar – Qarz oluvchi kredit shartnomasi bo‘yicha kreditning asosiy qarzi va unga hisoblanadigan foizlar hamda boshqa to‘lovlarni kredit shartnomasi shartlarida belgilangan tartibda va muddatlarda (o‘z vaqtida) Naf oluvchiga qoplamagan (to‘lamagan) pul miqdori.

Sug‘urta muddati – Sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan davrda sodir bo‘lgan sug‘urta hodisalari bo‘yicha majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladigan davr. Sug‘urta muddati har bir kredit shartnomasi bo‘yicha ularning muddatiga mutanosib ravishda alohida belgilanadi va sug‘urta polisida ko‘rsatiladi.

Subrogatsiya – Naf oluvchining Qarz oluvchiga nisbatan ko‘rgan zarari – to‘lab berilgan sug‘urta tovoni (qoplab berilgan mablag‘)ni talab qilish huquqi Sug‘urtalovchiga o‘tishi.

II. SHARTNOMA PREDMETI VA OBYEKTI

2.1. Mazkur sug‘urta shartnomasi predmeti bo‘lib, kredit qaytmaslik xatarini ushbu sug‘urta shartnomasining sug‘urta polisida ko‘rsatilgan sug‘urta summasi doirasida sug‘urtalash hisoblanadi.

2.2. Sug‘urta obyekti bo‘lib, Qarz oluvchining o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida kredit va unga hisoblangan barcha foizlarni qaytmaganlik bilan bog‘liq Naf oluvchining mulkiy manfaatlari hisoblanadi.

2.3. Sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasiga asosan, Naf oluvchi va Qarz oluvchi o‘rtasida tuzilgan kredit shartnomasi bo‘yicha mazkur sug‘urta shartnomasida keltirilgan sug‘urta hodisasi natijasida yetkazilgan zarar (sug‘urta tovoni)ni Naf oluvchiga to‘lash majburiyatini oladi.

2.4. Mazkur sug‘urta shartnomasi bo‘yicha Sug‘urtalovchining majburiyatlarini Qarz oluvchi tomonidan sug‘urta mukofoti to‘lab berilganidan so‘ng kuchga kiradi va sug‘urta shartnomasida belgilangan majburiyatlarini to‘liq bajarilgunga qadar amalda bo‘ladi.

2.5. Qarz oluvchi tomonidan Anketa-ariza imzolangan yoki ommaviy oferta akseptlangan, shu jumladan ushbu sug‘urta shartnomasi va sug‘urta polisiga muvofiq sug‘urta mukofoti to‘langan paytdan boshlab, mazkur sug‘urta shartnomasiga qo‘shilgan hisoblanadi.

Ommaviy oferta Qarz oluvchi tomonidan Sug‘urtalovchi yoki Naf oluvchining rasmiy veb-saytlari, masofaviy xizmat turlarini ko‘rsatuvchi ilovalari va/yoki axborot almashishning boshqa usullaridan foydalangan holda akseptlanadi.

2.6. Mazkur sug‘urta shartnomasiga muvofiq Qarz oluvchi va Naf oluvchi tomonidan Sug‘urtalovchiga taqdim etilgan hujjatlar, jumladan ilovalardagi ma'lumotlar ushbu sug‘urta shartnomasining ajralmas qismi ekanligini, ishonchli va haqiqatga to‘g‘ri keluvchi ma'lumotlar ekanligini, shuningdek aksept chaqirib olinmaganligini tasdiqlaydilar.

2.7. Naf oluvchi kredit shartnomasiga asosan mazkur sug‘urta shartnomasi shartlari va muddatlari doirasida kredit qarzdorligini Sug‘urtalovchidan talab qiladi.

III. SUG‘URTA HODISASI

3.1. Sug‘urta hodisasi bo‘lib, sug‘urta muddatida yuzaga kelgan, Qarz oluvchining kredit shartnomasi bo‘yicha zimmasiga oлган majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, ya’ni kredit to‘lovlarni (asosiy qarz va hisoblangan foizlar, shu jumladan muddatidan oldin undirish belgilangan qarzdorliklar) belgilangan shartlarda va muddatlarda to‘lanmaganligi hisoblanadi.

IV. SUG'URTA SUMMASI VA JAVOBGARLIK CHEGARASI

4.1. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta summasi – Qarz oluvchi va Naf oluvchi o'rtaida tuzilgan kredit shartnomasining ta'minot summasidan kelib chiqib belgilanadi hamda sug'urta polisida ko'rsatiladi.

4.2. Sug'urta summasi har bir kredit shartnomasi bo'yicha alohida belgilanadi va kreditning qaytmaslik xatari sug'urta polisi bilan ta'minlanadigan qismining **125** foizidan kam bo'lmasligi lozim.

V. SUG'URTA MUKOFOTINI HISOBBLASH VA TO'LASH TARTIBI

5.1. Sug'urta mukofoti kredit shartnomasining muddatidan va sug'urta summasidan kelib chiqib, quyidagicha belgilanadi:

- a) 24 oygacha (24-oy ham kiradi) ajratilgan kreditlar bo'yicha har bir yil uchun yillik **1** foiz;
- b) 24 oydan 36 oygacha (36-oy ham kiradi) ajratilgan kreditlar bo'yicha har bir yil uchun yillik **0,9** foiz;
- c) 36 oydan yuqori muddatga ajratilgan kreditlar bo'yicha har bir yil uchun yillik **0,8** foiz.

5.2. Sug'urta mukofoti Qarz oluvchi tomonidan sug'urta shartnomasiga qo'shilish bo'yicha Anketa-ariza imzolangan yoki ommaviy oferta akseptlangan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kunida kredit shartnomasining muddatiga mos ravishda to'liq to'lanadi.

5.3. Qarz oluvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'lanishi mazkur sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) shartlariga to'liq va so'zsiz qo'shilganligini (akseptlaganini) bildiradi.

5.4. Sug'urtalovchi to'langan sug'urta mukofotini Qarz oluvchining yozma arizasiga ko'ra, Naf oluvchining roziligi bilan (xat yoki onlayn tartibda yuborilgan API so'roviga asosan) 15 (o'n besh) ish kuni ichida quyidagi tartibda Qarz oluvchiga qaytarib beradi:

- Kredit shartnomasi bo'yicha kredit mablag'lari ajratilmasa to'langan sug'urta mukofoti to'liq qaytariladi;

- Qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi bo'yicha ajratilgan kredit mablag'lari muddatidan avval so'ndirilganda, sug'urta mukofotining mazkur so'ndirilgan muddatgacha (yozma murojat qilingan kungacha) tegishli qismini chegirib tashlagan holda qaytariladi.

VI. SUG'URTA SUMMASI (QOPLAMASI, TOVONI)NI TO'LASH TARTIBI

6.1. Sug'urta summasi (qoplaması, tovoni) Sug'urtalovchi tomonidan Naf oluvchiga Qarz oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatları bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda sug'urta summasi (qoplaması, tovoni)dan oshmagan miqdorda to'lab beriladi.

6.2. Sug'urta hodisasi yuzaga kelganda har bir kredit shartnomasi bo'yicha alohida va qo'yidagi tartibda to'lanadi:

a) Kredit to'lovlari to'lov grafigi bo'yicha 60 kundan ortiq vaqtida to'lanmagan qismi bo'yicha Sug'urtalovchi Naf oluvchining birinchi talabiga binoan sug'urta tovonini kredit shartnomasiga asosan kreditning muddati o'tgan asosiy qarz va hisoblangan foizlarni to'lab berish majburiyatini oladi;

b) Kredit qarzdorligi (asosiy qarz va hisoblangan foizlar)ni undirish haqida qabul qilingan qaror bo'yicha qarzdorlikni undirish imkonni bo'lmaganligi sababli Majburiy ijro organi tomonidan bankka qaytarilganda, Naf oluvchining birinchi talabiga binoan barcha asosiy qarz va hisoblangan foizlarni to'liq to'lab berish majburiyatini oladi.

Bunda, Naf oluvchi tomonidan Sug'urtalovchiga ariza (talabnomalariga) kiritilgan kundan boshlab kutish davri – 15 (o'n besh) bank ish kunini tashkil qiladi.

6.3. Sug'urtalovchi tomonidan Qarz oluvchining kredit qarzdorligi qoplanishi bo'yicha undiruvni kredit shartnomasiga muvofiq ta'minot sifatida qabul qilingan garov sifatidagi mol-mulkлага, uchinchi shaxslar taqdim etgan kafillik va kafolatlariga qaratilgan yoki qaratmaganligidan qat'iy nazar Naf oluvchiga sug'urta tovoni to'lab beradi.

6.4. Naf oluvchi ushbu sug'urta shartnomasining 6.2-bandida ko'rsatilgan sug'urta hodisasi yuzaga kelganda, Bosh ofisi orqali Sug'urtalovchiga sug'urta tovonini to'lash bo'yicha kutish davridan keyin ariza (talabnomalariga) yuboradi.

Arizada Qarz oluvchi (-lar) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi va arizaga quyidagi hujjalarning nusxasi ilova qilinadi:

Sug'urta shartnomasi **6.2**-bandining "a" kichik bandi bo'yicha:

- Anketa-ariza;
- Sug'urta polisi;
- Kredit shartnomasi va to'lov grafigi;

- Kredit qarzdorligi bo'yicha ma'lumotnoma.
- Sug'urta shartnomasi **6.2**-bandining "b" kichik bandi bo'yicha:
- Anketa-ariza;
- Sug'urta polisi;
- Kredit shartnomasi va to'lov grafigi;
- Kredit qarzdorligi bo'yicha ma'lumotnoma;
- Sud qarori va ijro varaqasi;
- Majburiy ijro organining qarori.

Naf oluvchi tomonidan ariza (talabnoma)ga qo'shimcha ravishda Qarz oluvchiga tegishli bankda mavjud bo'lgan boshqa hujjatlarni ham ilova qilinishi mumkin.

6.5. Naf oluvchi taqdim etgan barcha zarur hujjatlar asosida Sug'urtalovchi tomonidan 15 (o'n besh) ish kuni ichida sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma tuziladi, unda olingan barcha ma'lumotlar ko'rsatiladi va to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta summasi (tovoni) miqdori belgilanadi. Dalolatnoma Naf oluvchi va Sug'urtalovchining mas'ul xodimlari tomonidan imzolanadi.

6.6. Naf oluvchiga sug'urta summasi (qoplaması, toponi) to'lovi sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan so'ng 3 (uch) ish kuni ichida amalga oshiriladi. Sug'urta summasi (qoplaması, toponi) to'langan kun bo'lib, Naf oluvchining bank hisobvarag'iga pul mablag'lari kelib tushgan kun hisoblanadi.

6.7. Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta summasi (qoplaması, toponi)ni to'lash rad etilgan taqdirda, ushbu sug'urta shartnomasi sharflariga muvofiq tegishli hujjatlarni taqdim etgan kundan boshlab 3 (uch) kalender kun ichida rad etish haqida xabar qilinishi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

6.8. Sug'urta summasi (qoplaması, toponi) Sug'urtalovchi tomonidan mazkur sug'urta shartnomasi **6.2** bandining "a" kichik bandida belgilangan tartibda ixtiyoriy ravishda Naf oluvchiga to'lab berilmagan taqdirda, sug'urta summasi (qoplaması, toponi) amaldagi qonunchilik talablari asosan, tegishli sudning qarori asosida majburiy tartibda undiriladi.

6.9. Naf oluvchiga sug'urta toponi to'langanidan so'ng, sug'urta toponi doirasida qoplangan zarar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda da'vo qilish huquqi Sug'urtalovchiga o'tadi.

6.10. Sug'urtalovchi tomonidan Naf oluvchining ko'rgan zarari uchun sug'urta toponi to'lab berilgandan so'ng, har qanday manbalardan kompensatsiya tarzida kelib tushgan pul mablag'lari Sug'urtalovchi va Naf oluvchi o'rtaida quyidagicha taqsimlanadi:

- Sug'urtalovchi kompensatsiya tarzida kelib tushgan mablag'dan Naf oluvchining ko'rgan zarari uchun to'lagan sug'urta toponi va shunga bog'liq xarajatlari miqdoridagi summani oladi.

6.11. Sug'urta shartnomasining barcha shartlarini amalga oshirish bilan bog'liq har qanday xarajatlarni qoplash Qarz oluvchining zimmasiga yuklatiladi.

VII. SUG'URTA POLISINI BERISH TARTIBI

7.1. Ushbu sug'urta shartnomasi (ommaviy oferta)da belgilangan tartibda va muddatda Sug'urtalovchining bankdagi hisobraqamiga sug'urta mukofoti (pul mablag'lari) kelib tushgandan so'ng sug'urta polisi taqdim etiladi.

7.2. Sug'urta polislari (E-polis) Sug'urtalovchining rasmiy veb-sayti, ilovalari va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali elektron ravishda taqdim etiladi hamda ommaviy ofertaning mazkur sug'urta shartnomasining shartlariga mos ravishda tuzilishi bo'yicha Sug'urtalovchi javobgar hisoblandi.

7.3. Mazkur sug'urta shartnomasining amal qilish davrida Sug'urtalovchining sug'urta xizmatini ko'rsatish darjasini Naf oluvchining ichki me'yoriy hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga muvofiq kelmasa, Naf oluvchi yangi polis qabul qilishni bir tomonlama to'xtatishga haqli.

7.4. Qarz oluvchi mazkur sug'urta shartnomasiga Anketa-ariza imzolangan yoki ommaviy oferta akseptlangan kundan boshlab qo'shilgan hisoblanadi va sug'urta shartnomasining tarafi, ya'ni Qarz oluvchi sifatida ishtirok etadi.

7.5. Sug'urtalovchi ommaviy ofertani mazkur sug'urta shartnomasining asosiy shartlariga muvofiq tuzilishi bo'yicha javobgar hisoblanadi.

7.6. Qarz oluvchi tomonidan ommaviy ofertani akseptlash quyidagilar hisoblanadi:

- Sug'urta shartnomasi shartlarini boricha va to'liqligicha qabul qilish;
- Mazkur sug'urta shartnomasining **5.1** va **5.2** bandlariga muvofiq sug'urta mukofotini to'lash.

Ommaviy oferta va uning shartlari Fuqarolik kodeksining 367, 369 va 370-moddalariga asosan ishlab chiqilgan.

VIII. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

8.1. Sug‘urtalovchining huquqlari:

- Sug‘urta tovoni to‘lab berilganidan so‘ng, Qarz oluvchidan zararni undirib olish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda da’vo qilish huquqini amalga oshirish;
- Qarz oluvchidan (-lardan) to‘langan pul mablag‘larini subrogatsiya (regress) tartibida undirish jarayonida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimi orqali Qarz oluvchiga (-larga) tegishli bo‘lgan har qanday hisobraqamidagi pul mablag‘larini ularning rozilgisiz undirish;
- Mazkur sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan muddat mobaynida Qarz oluvchi bilan birligida kreditni monitoring qilishda ishtirok etishi va kredit shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi yuzasidan ma’lumotlar olish;
- Sug‘urta qaltisligi oshishiga olib kelgan holatlar yuzaga kelganda, mazkur sug‘urta shartnomasi shartlariga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha taklif berish.

8.2. Sug‘urtalovchining majburiyatlari:

- Sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasi bo‘yicha Naf oluvchiga sug‘urta summasi doirasida sug‘urta summasini to‘lash va Qarz oluvchilarining kredit shartnomalari yuzasidan barcha moliyaviy majburiyatlari bo‘yicha Naf oluvchi oldida solidar javobgar bo‘lish;
- Sug‘urta shartnomasi amal qilishi davrida Qarz oluvchiga sug‘urta qilish masalalari bo‘yicha maslahatlar berish;
- Sug‘urta hodisasi bo‘yicha Naf oluvchidan unda mayjud bo‘lgan Qarz oluvchining faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar va hujjatlarni, sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi dalolatnama imzolanganidan so‘ng belgilangan muddat ichida sug‘urta tovonini Naf oluvchiga to‘lab berish;
- Naf oluvchi tomonidan sug‘urta shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlarni belgilangan tartibda taqdim qilganidan so‘ng, Naf oluvchi bilan sug‘urta hodisasi to‘g‘risida dalolatnama tuzish va sug‘urta tovonini to‘lab berish yoki unga sug‘urta tovonini to‘lashni rad etish to‘g‘risida, rad etish sabablari ko‘rsatilgan xabarnoma yuborish;
- Qarz oluvchi/Naf oluvchiga sug‘urta masalalari yuzasidan maslahatlar berish;
- Sug‘urta polisini ushbu cug‘urta shartnomasida belgilangan muddat va tartibda berish;
- Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda Naf oluvchiga ushbu sug‘urta shartnomasida belgilangan tartib va miqdorda sug‘urta summasi (qoplamasи, tovoni)ni to‘lash;
- Qarz oluvchi va uning mulkiy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilmasligi, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

8.3. Naf oluvchining huquqlari:

- Sug‘urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug‘urta qilish shartlari bilan tanishish;
- Sug‘urtalovchi bilan kelishilgan holda ushbu sug‘urta shartnomasiga qo‘srimchalar va/yoki o‘zgartirishlar kiritish;
- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va sug‘urta shartnomasi shartlariga muvofiq mazkur sug‘urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish;
- Sug‘urta hodisasi yuz berganda, ushbu sug‘urta shartnomasida belgilangan tartibda Sug‘urtalovchiga sug‘urta tovonini to‘lash bo‘yicha ariza (talabnama) bilan murojaat qilish;
- Sug‘urta polisi bo‘yicha Sug‘urtalovchidan o‘z majburiyatlarini bajarilishini talab qilish;
- Sug‘urtalovchi tomonidan mazkur sug‘urta shartnomasi va avval tuzilgan boshqa shartnomalar bo‘yicha Naf oluvchi oldidagi sug‘urta tovonini to‘lash bilan bog‘liq majburiyatlari belgilangan muddatdan 1 (bir) oyga kechiktirilsa, yangi sug‘urta polisi qabul qilishni bir tomonlama to‘xtatish va mazkur sug‘urta shartnomasini bekor qilish;
- Sug‘urta polisi yo‘qolgan taqdirda, ushbu sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan shartlarda, sug‘urta polisi dublikati (hujjatning asli bilan teng huquqli nusxasi)ni olish;
- Mazkur sug‘urta shartnomasining amal qilish davrida Sug‘urtalovchining sug‘urta xizmatini ko‘rsatish darajasi Naf oluvchining ichki me’yoriy hujjatlarida ko‘rsatilgan talablarga muvofiq kelmasa, Naf oluvchi yangi polis qabul qilishni bir tomonlama to‘xtatish;
- Sug‘urtalovchining veb saytida e’lon qilingan to‘lovga qobiliyatlilik normativlari bo‘yicha talablar bajarilmayotganligi aniqlansa, yangi sug‘urta polisini qabul qilishni bir tomonlama to‘xtatish;
- Mazkur sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan muddat mobaynida sug‘urta masalalari yuzasidan bepul maslahatlar olish;

- Ushbu sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan muddat mobaynida Sug‘urtalovchiga mazkur sug‘urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish haqida murojaat etish.

8.4. Naf oluvchining majburiyatlari:

- Mazkur sug‘urta shartnomasining shartlari va tartibiga asosan Sug‘urtalovchiga ariza (talabnama) yuborish;

- Sug‘urta shartnomasiga asosan Sug‘urtalovchiga 6.3-bandida ko‘rsatilgan hujjatlarni taqdim qilish;

- Sug‘urta tovoni to‘langanligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani Qarz oluvchi va Sug‘urtalovchiga ularning so‘roviga ko‘ra taqdim etish.

8.5. Qarz oluvchining huquq va majburiyatlari:

- Mazkur sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta mukofoti to‘lanishidan oldin sug‘urta shartnomasi, Anketa-ariza va/yoki ommaviy oferta shartlari bilan tanishib chiqish;

- Sug‘urta shartnomasi amal qilishi davrida sug‘urta shartnomasi bo‘yicha Sug‘urtalovchidan maslahatlar olish;

- Mazkur sug‘urta shartnomasiga asosan Anketa-arizani imzolagan kundan boshlab yoki ommaviy ofertani tasdiqlagandan so‘ng 3 (uch) bank kuni ichida sug‘urta mukofotini to‘liq to‘lab berish;

- Sug‘urtalovchi o‘zi to‘lagan pul mablag‘larini subrogatsiya (regress) tartibida undirish jarayonida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimi orqali Qarz oluvchiga tegishli bo‘lgan hisobvarag‘laridan ularning rozilgisiz pul mablag‘larini undirishga va Qarz oluvchi ommaviy ofertani akseptlashi yoki Anketa-arizani imzolashi bilan o‘z roziligini bildirganligini anglatadi.

- Sug‘urtalovchiga ushbu sug‘urta shartnomasida kelishilgan tartib va muddatlarda sug‘urta mukofotini to‘lash;

- Sug‘urtalovchining so‘roviga ko‘ra, kredit shartnomasi bo‘yicha sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganligi va tafsilotlarini aniqlash uchun zarur ma’lumotlar yoki axborotlarni taqdim etish;

- Sug‘urtalovchiga subrogatsiya va regress tartibida o‘tgan talab qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur barcha hujjatlar va dalillarni taqdim etish hamda barcha ma’lumotlardan Sug‘urtalovchini xabardor qilish.

IX. ISTISNOLAR

9.1. Ushbu sug‘urta shartnomasi bo‘yicha quyidagi holatlarda sug‘urta summasi (qoplamasи, tovoni) to‘lanmaydi:

a) agar sug‘urta hodisasi quyidagilar natijasida sodir bo‘lsa, Sug‘urtalovchi sug‘urta tovoni to‘lashdan ozod bo‘lishi mumkin: yadroviy portlash, radiatsiya yoki radioaktiv zaharlanish va harbiy harakatlar sodir bo‘lsa;

b) agar Qarz oluvchi yoki Naf oluvchi sug‘urta hodisasi sabablari va tafsilotlarini, shuningdek zarar miqdorini aniqlashda Sug‘urtalovchi ishtirok etishiga to‘sqinlik qilsa;

c) Sug‘urta shartnomasiga ko‘ra, Qarz oluvchi tomonidan o‘z muddatida va kelishilgan miqdorda sug‘urta mukofoti to‘lanmaganda;

d) Agar Naf oluvchi sug‘urta hodisasi ro‘y berganligi to‘g‘risida Sug‘urtalovchini xabardor qilmasa.

X. SUBROGATSIYA

10.1. Naf oluvchining sug‘urta hodisasi natijasida qoplangan zarari uchun Qarz oluvchidan (-lardan) talab qilish huquqi to‘langan summa (tovon) doirasida Sug‘urtalovchiga o‘tadi.

10.2. Sug‘urtalovchiga o‘tgan talab qilish huquqi, Naf oluvchi va Qarz oluvchi(-lar) o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatlarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

10.3. Qarz oluvchi, Sug‘urtalovchiga o‘tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlar va ma’lumotlarni unga ma’lum qilishi shart.

10.4. Sug‘urtalovchi qarzni undirishni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga asosan amalga oshiradi.

XI. FORS-MAJOR HOLATLARI

11.1. Agar mazkur sug‘urta shartnomasi imzolanganidan so‘ng, taraflarning erki va istagiga bog‘liq bo‘lmagan hamda oldindan ko‘ra bilish yoki oldini olib bo‘lmaydigan, favqulodda vaziyatlar oqibatidagi yengib bo‘lmas kuch tufayli taraflar ushbu sug‘urta shartnomasi bo‘yicha olgan majburiyatlarini qisman yoki to‘liq bajara olmasalar (fors-major), buning uchun ular javobgar bo‘lmaydilar.

XII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA BEKOR BO'LISH TARTIBI

12.1. Ushbu sug'urta shartnomasi Tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar amalda bo'ladi.

12.2. Mazkur sug'urta shartnomasi quyidagi holatlarda bekor bo'ladi:

- Sug'urtalovchi tomonidan mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha Naf oluvchi oldidagi majburiyatlarni to'liq hajmda bajarilgan taqdirda;

- Sug'urtalovchi tomonidan mazkur sug'urta shartnomasi va Naf oluvchi bilan avval tuzilgan boshqa sug'urta shartnomalari bo'yicha Naf oluvchi oldidagi sug'urta tovonini to'lash bilan bog'liq majburiyatlari belgilangan muddatdan 1 (bir) oyga kechiktirilsa;

- Tomonlarning kelishuviga muvofiq ushbu sug'urta shartnomasiga qo'shimcha kelishuv tuzish orqali;

- Sud tartibida;

- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjalardida ko'rsatilgan boshqa holatlarda.

XIII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

13.1. Tomonlar ushbu sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarni bajarayotganda ularning har biri o'z faoliyatida korruption harakatlarni to'liq taqiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash, ma'muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish, raqobat va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi. Tomonlar o'z faoliyatida amalagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo'lsa) talablariga amal qiladilar.

13.2. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarni bajarish chog'ida na o'zları, na ijroiya organi, na ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korruption to'lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korruption to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmasliklarini kafolatlaydi.

13.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Tomonlar yozma xabarnomada ushbu bo'limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart.

Yozma xabarnomalar "Biznesni rivojlantirish banki" ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens ishonch liniyasi" kanallari (tel: 78-150-59-95, veb sayt www.brbr.uz, Telegram messenger [@BRB_ANTIKOR_BOT](https://t.me/BRB_ANTIKOR_BOT) (email:antikor@brbr.uz) orqali amalga oshiriladi.

13.4. Ushbu bo'lim shartlari tomonlarning biri buzilganligi bo'yicha fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa Tomonning qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

13.5. Mazkur sug'urta shartnomasini korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash tomonlarning mas'ul xodimlari tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

XIV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

14.1. Mazkur sug'urta shartnomasining shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining Qonuni va boshqa qonun hujjalardida belgilangan tartibda javobgar bo'ladir.

14.2. Sug'urtalovchi mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlari bilan Qarz oluvchi bilan birga kreditning sug'urta qilingan qismi bo'yicha sug'urta summasi (qoplamasи, tovoni) miqdorida Naf oluvchi oldida solidar javobgar bo'ladi.

14.3. Ommaviy oferta mazkur sug‘urta shartnomasining barcha asosiy shartlariga muvofiq rasmiylashtirilishi bo‘yicha Sug‘urtalovchi javobgar hisoblanadi.

14.4. Sug‘urtalovchiga tegishli pul mablag‘larini to‘lash muddatlariga amal qilinmagan taqdirda, Sug‘urtalovchining talabiga ko‘ra, Qarz oluvchi har bir kechiktirilgan kun uchun qarzning 0,1 (nol butun o‘ndan bir) foizi miqdorida, lekin to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘ning 10 (o‘n) foizidan oshmagan miqdorda penya to‘laydi.

14.5. Sug‘urta summasi (tovoni) to‘lovi muddatlariga amal qilinmagan taqdirda, Sug‘urtalovchi, Naf oluvchining talabiga muvofiq har bir kechiktirilgan kun uchun qarz miqdorining 0,1 (nol butun o‘ndan bir) foizi miqdorida, lekin to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘ning 10 (o‘n) foizidan oshmagan miqdorda penya to‘laydi.

XV. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

15.1. Sug‘urta summasi (qoplamasи, tovoni) Sug‘urtalovchi tomonidan mazkur sug‘urta shartnomasining **6.2**-bandi bo‘yicha belgilangan tartibda ixtiyoriy ravishda Naf oluvchiga to‘lab berilmagan taqdirda, sug‘urta summasi (qoplamasи, tovoni) amaldagi qonunchilik talablariga asosan, tegishli sudning qarori asosida majburiy tartibda undiriladi.

15.2. Tomonlar ushbu sug‘urta shartnomasi yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan kelishmovchilik va nizolarni o‘zaro muzokaralar yo‘li bilan hal qilishga harakat qiladilar.

15.3. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha taraflar o‘rtasida kelib chiqqan kelishmovchilik va nizolarni muzokaralar yo‘li bilan hal etishni imkonni bo‘lmasa, nizolar tegishli sudlar tomonidan amaldagi qonun hujjatlarda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

XVI. BOSHQA SHARTLAR

16.1. Mazkur sug‘urta shartnomasiga qo‘sishchalar va o‘zgarishlar kiritish tomonlarning roziligi asosida qo‘sishma kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi, shartnomalar shartlariga bir tomonlama o‘zgartirish kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

16.2. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxslarga topshirish tomonlarning yozma roziligesiz amalga oshirishiliga yo‘l qo‘yilmaydi.



16.3. Ushbu sug‘urta shartnomasida ko‘rsatib o‘tilmagan boshqa masalalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

16.4. Sug‘urtalovchi va Naf oluvchi ma’lumotlarni sir saqlash bo‘yicha javobgardirlar va ular ushbu sug‘urta shartnomasi, uning ilovalari va shartnomalar bilan bog‘liq boshqa hujjatlarning mazmunini tegishli tomonning dastlabki yozma roziligesiz uchinchi tomonga oshkor qilishlari man etiladi.

16.5. Tomonlarning yuridik manzili va bank rezervitlari o‘zgargan taqdirda, ular bu haqda bir-birini 10 kalendar kunidan kechiktirmay xabardor qilishi lozim.

16.6. Ushbu sug‘urta shartnomasi 2 (ikki) nusxada tuziladi, Sug‘urtalovchi va Naf oluvchida bitta nusxadan saqlanadi va ularning har biri teng huquqiy kuchga ega.

XVII. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

<p style="text-align: center;">“Sug‘urtalovchi” “Kapital Sug‘urta” AJ</p> <p>Manzil: Toshkent shahar M.Ulug‘bek tumani Maxatma Gandi ko‘chasi, 44-uy.</p> <p>H/r: 20216000300138037003</p> <p>“Biznesni rivojlantirish banki” ATB</p> <p>MFO: 01037, STIR: 200638670, XTTUT: 65120 Tel: 71-200-11-10</p> <p>Bosh direktor: X.A.Bo‘rrixo‘jaev</p>  	<p style="text-align: center;">“Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi” “Biznesni rivojlantirish banki” ATB</p> <p>Manzil: Toshkent shahar, A.Navoiy ko‘chasi, 18-A uy.</p> <p>H/r: 29896000400001037410</p> <p>“Biznesni rivojlantirish banki” ATB</p> <p>MFO: 01037, STIR: 206 916 313, OKED: 64190, tel: 78-150-93-39</p> <p>Kredit bosh direktori B.K. Mullajanov</p>  
--	---



“Kapital Sug‘urta” AJ
va “Biznesni rivojlantirish banki” ATB o‘rtasida
2025-yil _____ da tuzilgan
Bosh kelishuv shartnomasiga
1-ilova

“Kapital Sug‘urta” AJ
Bosh direktori X.A.Bo‘rixo‘jaevga

Qarz oluvchi

dan

**Yuridik shaxslar (Tadbirkorlik subektlari)ga kreditning qaytmaslik xatarini sug‘urtalash bo‘yicha
Anketa-ariza**

Ushbu Anketa-ariza bilan, Sizdan quyidagi ma’lumotlar asosida sug‘urta shartnomasini/polisini tuzishingizni so‘rayman.

1	Sug‘urta mahsulotining nomi:	
2	Sug‘urtalovchi:	
3	Sug‘urta qildiruvchi:	
4	Sug‘urtalangan shaxs:	
5	Naf oluvchi:	
6	Sug‘urta obyekti:	
7	Sug‘urta shakli:	
8	Sug‘urta klassi:	
9	Sug‘urta tavakkalchiliklari:	
10	Sug‘urta qiymati:	
11	Sug‘urta summasi:	
12	Sug‘urta mukofoti:	
13	Sug‘urta polisining amal qilish muddati:	
14	Sug‘urta qoidalari:	
15	Sug‘urta tashkilotining manzili:	
16	Alovida qaydlar	
17	Sug‘urta shartnomasining quyidagi muhim shartlari bilan tanishdim hamda o‘z roziligidan bildiraman:	<p>Mazkur arizani imzolagan vaqtidan boshlab Sug‘urtalovchi, Naf oluvchi va Qarz oluvchi o‘rtasida sug‘urta shartnomasi tuzilgan hisoblanadi hamda Qarz oluvchi mazkur sug‘urta shartnomasining barcha shartlarini istisno qilmasdan so‘zsiz qabul qilganligini anglatadi.</p> <p>Sug‘urta hodisasi bo‘yicha zarar qoplangandan keyin, Sug‘urtalovchi Qarz oluvchiga amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq har qanday boshqa shaxs va tashkilotga nisbatan regress bo‘yicha barcha huquqlarga ega bo‘ladi.</p> <p>Sug‘urtalovchi Qarz oluvchidan ushbu pul mablag‘larini subrogatsiya (regress) tartibida undirish jarayonida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimi orqali Qarz oluvchiga tegishli bo‘lgan har qanday turdagি hisobvaraqlaridan ularning roziligidan pul mablag‘larini undirishga mazkur arizani imzolashi bilan o‘z roziligidan bildirganligini anglatadi.</p>

Sug‘urta shartnomasi shartlari bilan tanishdim, ularga roziman va bajarish majburiyatini olaman.

Qarz oluvchi

Sana: 20____ y._____

(imzo)

**Yuridik shaxslar (Tadbirkorlik subektlari)ga kreditning qaytmaslik xatarini sug‘urtalash
bo‘yicha E-polisni (elektron polisni) rasmiylashtirish shartlari yuzasidan
OMMAVIY OFERTA**

Ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda - oferta) **“Kapital Sug‘urta” AJ** (keyingi o‘rinlarda - Sug‘urtalovchi) bilan Qarz oluvchi o‘rtasida kredit qaytmaslik xatarini sug‘urtalash bo‘yicha E-polisni (elektron polisni) rasmiylashtirish (sug‘urta shartnomasini tuzish, o‘zgartirish kiritish va bekor qilish) tartiblari va sug‘urtalash shartlarini belgilaydi.

Mazkur oferta O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi, “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlari, Sug‘urtalovchi va Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi (“Biznesni rivojlantirish banki” ATB) o‘rtasidagi 2025-yil “_____ da tuzilgan _____-sonli Bosh sug‘urta shartnomasi (keyingi o‘rinlarda - sug‘urta shartnomasi) asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu ofertada Sug‘urta qildiruvchi – “Biznesni rivojlantirish banki” ATB hisoblanadi.

I. Umumiy shartlar va tushunchalar

Ofertada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

E-polis – kredit qaytmaslik xatarini sug‘urtalash bo‘yicha elektron shaklda tuzilgan sug‘urta shartnomasi;

Qarz oluvchi – Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi bilan kredit shartnomasini tuzgan va sug‘urta shartnomasiga ommaviy ofertani akseptlash orqali qo‘shilgan, sug‘urta shartnomasida kelishilgan sug‘urta mukofotini to‘lovchi yuridik shaxs yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subyektlar (Naf oluvchining mijozlari).

sug‘urta hodisasi – sug‘urta muddatida yuzaga kelgan, kredit shartnomasi bo‘yicha Qarz oluvchining zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, ya’ni ajratilgan kredit bo‘yicha to‘lovlarni kredit shartnomasida belgilangan shartlar va muddatlarda to‘lamaganligi hisoblanadi.

sug‘urta summasi – Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda Sug‘urtalovchining sug‘urta shartnomasi bo‘yicha Naf oluvchi oldidagi majburiyatları hajmining chegarasini o‘zida aks ettiruvchi pul mablag‘lari miqdori.

sug‘urta mukofoti – Qarz oluvchi E-polisni sotib olish uchun Sug‘urtalovchiga to‘lashi shart bo‘lgan pul mablag‘lari summasi.

sug‘urta tovoni – sug‘urtalovchi E-polisga muvofiq sug‘urta shartnomasida nazarda tutilgan sug‘urta hodisasi yuz berganda, Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchiga sug‘urta summasi doirasida to‘lanadigan pul mablag‘i.

yagona axborot tizimi – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralarning axborot tizimlari va markaziy ma‘lumotlar bazalari, jismoniy va yuridik shaxslar markaziy ma‘lumotlar bazalari bilan integratsiyalashgan, ixtiyoriy/majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha onlayn tartibida faoliyat yurituvchi yagona axborot tizimi.

rasmiy veb-sayt, mobil ilova va axborot almashishning boshqa usullaridan foydalanish – Qarz oluvchining undan foydalanishga qaratilgan har qanday harakati. Rasmiy veb-sayt, mobil ilova va axborot almashishning boshqa usullaridan foydalanishda dastavval, Qarz oluvchi ushbu oferta shartlari bilan to‘liq tanishib chiqishi lozim. Agar Qarz oluvchi oferta shartlariga yoki uning ba‘zi qismlariga rozi bo‘lmasa, u foydalanishni to‘xtatishi lozim. Qarz oluvchining rasmiy veb sayt, mobil ilova va/yoki axborot almashishning boshqa usullaridan foydalanishni davom ettirishi ushbu oferta shartlariga to‘liq va so‘zsiz rozi ekanligini bildiradi.

II. E-polisni rasmiylashtirish

1. E-polisni rasmiylashtirish Sug‘urtalovchining rasmiy veb-saytida sug‘urta uchun mo‘ljallangan

qismi yoki uning mobil ilovasi va/yoki axborot almashishning boshqa usullaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

2. Qarz oluvchi E-polisni rasmiylashtirish to‘g‘risidagi elektron arizaga quyidagi ma‘lumotlarni kiritadi:

- Sug‘urta mahsulotining nomi;
- Sug‘urtalovchi;
- Sug‘urtalangan shaxs;
- Qarz oluvchi;
- Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi;
- Sug‘urta obyekti;
- Sug‘urta shakli;
- Sug‘urta klassi;
- Sug‘urta summasi;
- Sug‘urta mukofoti;
- Sug‘urta polisining amal qilish muddati;
- Sug‘urta tashkilotining manzili;
- Alovida qaydlar.

Bunda, yuqoridaqgi va boshqa tegishli ma‘lumotlar yagona axborot tizimida mavjud bo‘lganda avtomatik tarzda to‘ldiriladi.

3. Elektron ariza to‘ldirilayotgan vaqtida Yagona axborot tizimi qisman yoki to‘liq ishlamaganda, ya‘ni davlat axborot bazalari qisman ishlamagan va/yoki ular bilan aloqa uzilgan taqdirda, Qarz oluvchi arizadagi qolgan ma‘lumotlarni qo‘lda kiritadi yoki hujjatlarni ilova qiladi.

4. Elektron ariza to‘liq to‘ldirilgandan so‘ng Qarz oluvchi tomonidan yuborish tugmasi bosiladi.

5. Elektron ariza orqali yuborilgan ma‘lumotlar Sug‘urtalovchining mas‘ul xodimlari tomonidan 1 (soat) ichida to‘liqligi va to‘g‘riligi tekshirilib, Qarz oluvchiga sug‘urta mukofotini to‘lashi mumkinligi yoki ma‘lumotlarni qayta to‘g‘irlanishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi.

Agar Qarz oluvchi tomonidan ariza berilgan sanadan boshlab 1 (bir) soat davomida ma‘lumotlar qayta tekshirilmasa va/yoki to‘g‘irlanmasa, Sug‘urtalovchi E-polisni rasmiylashtirish, qayta rasmiylashtirish va bekor qilish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida Qarz oluvchiga SMS-xabar yuboradi.

6. Qarz oluvchi sug‘urta mukofotini to‘lashi mumkinligi to‘g‘risidagi xabarnomani olgandan so‘ng 3 (uch) kun ichida sug‘urta mukofotini elektron to‘lov tizimlari va o‘ziga tegishli bankdagi hisobraqamlari orqali, naqd pulda, pul o‘tkazish yo‘li bilan to‘lashi lozim.

7. Sug‘urta mukofoti E-polisda nazarda tutilgan to‘lovdan kamroq miqdorda to‘langan bo‘lsa, sug‘urta tashkiloti sug‘urta mukofotining to‘lanmagan qismi, Qarz oluvchi tomonidan 24 soat muddatda to‘lanishi zarurligi to‘g‘risida darhol xabarnoma yuboradi.

8. Sug‘urta mukofoti to‘langanligi fakti ushbu Oferta Qarz oluvchi tomonidan aksept qilinganligini anglatadi.

9. E-polis Qarz oluvchi tomonidan sug‘urta mukofoti to‘langan paytdan boshlab kuchga kiradi. Agar E-polisda sug‘urta amal qilishi boshlanishining boshqacha muddati nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urta elektron shartnomasi kuchga kirganidan keyin yuz bergen sug‘urta hodisalariga nisbatan tatbiq etiladi.

10. Sug‘urta mukofoti to‘liq to‘langandan keyin E-polis rasmiylashtirilganligi to‘g‘risidagi xabarnoma Qarz oluvchi tomonidan tanlangan shaklda yuboriladi va u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Sug‘urta tashkilotining nomi;
- Sug‘urta mukofoti miqdori;
- E-polisning amal qilish muddati;
- E-polisning noyob raqami;
- Yagona axborot tizimiga havola;
- Mazkur ofertaning 2-bob 3-bandidagi ma‘lumotlar.

11. Qarz oluvchi/Naf oluvchi Yagona axborot tizimiga havola orqali o‘tib, E-polisni yuklab oladi.

III. Taraflarning huquq va majburiyatları

12. Qarz oluvchining huquq va majburiyatları:

- Sug‘urta mukofoti to‘lanishidan oldin sug‘urta shartnomasi, ommaviy oferta shartlari bilan tanishish;
- Oferta tasdiqlagandan so‘ng 3 (uch) bank kuni ichida sug‘urta mukofotini to‘liq to‘lab berish;
- Sug‘urtalovchi o‘zi to‘lagan pul mablag‘larini subrogatsiya (regress) tartibida undirish jarayonida

avtomatlashtirilgan to‘lov tizimi orqali Qarz oluvchiga tegishli bo‘lgan hisobvarag‘laridan ularning rozilgisiz pul mablag‘larini undirishga, ofertani akseptlashi bilan o‘z roziligini bildirganligini anglatadi.

- Sug‘urtalovchiga ofertada kelishilgan tartib va muddatlarda sug‘urta mukofotini to‘lash;

- Sug‘urtalovchining so‘roviga ko‘ra, kredit shartnomasi bo‘yicha sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganligi va tafsilotlarini aniqlash uchun zarur ma’lumotlar yoki axborotlarni taqdim etish;

- Sug‘urtalovchiga subrogatsiya va regress tartibida o‘tgan talab qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur barcha hujjatlar va dalillarni taqdim etish hamda barcha ma’lumotlardan Sug‘urtalovchini xabardor qilish;

- Sug‘urtalovchidan E-polis to‘g‘risida tushuntirish berishni talab qilish;

13. Sug‘urtalovchining huquqlari:

- Sug‘urta tovoni to‘lab berilganidan so‘ng, Qarz oluvchidan zararni undirib olish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda da‘vo qilish huquqini amalga oshirish;

- Qarz oluvchidan (-lardan) to‘langan pul mablag‘larini subrogatsiya (regress) tartibida undirish jarayonida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimi orqali Qarz oluvchiga (-larga) tegishli bo‘lgan har qanday hisobraqamidagi pul mablag‘larini ularning rozilgisiz undirish;

- Oferta amalda bo‘lgan muddat mobaynida Qarz oluvchi bilan birgalikda kreditni monitoring qilishda ishtirok etishi va kredit shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi yuzasidan ma’lumotlar olish;

- Sug‘urta qaltisligi oshishiga olib kelgan holatlar yuzaga kelganda, mazkur sug‘urta shartnomasi shartlariga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha taklif berish.

14. Sug‘urtalovchining majburiyatları:

- Sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasi bo‘yicha Naf oluvchiga sug‘urta summasi doirasida sug‘urta summasini to‘lash va Qarz oluvchilarining kredit shartnomalari yuzasidan barcha moliyaviy majburiyatları bo‘yicha Naf oluvchi oldida solidar javobgar bo‘lish;

- Oferta amal qilishi davrida Qarz oluvchiga sug‘urta qilish masalalari bo‘yicha maslahatlar berish;

- Sug‘urta hodisasi bo‘yicha Naf oluvchidan unda mavjud bo‘lgan Qarz oluvchining faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar va hujjatlarni, sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi dalolatnomalar imzolanganidan so‘ng belgilangan muddat ichida sug‘urta tovonini Naf oluvchiga to‘lab berish;

- Naf oluvchi tomonidan ofertada ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlarni belgilangan tartibda taqdim qilganidan so‘ng, Naf oluvchi bilan sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi dalolatnomalar tuzish va sug‘urta tovonini to‘lab berish yoki unga sug‘urta tovonini to‘lashni rad etish to‘g‘risida, rad etish sabablari ko‘rsatilgan xabarnoma yuborish;

- Qarz oluvchiga sug‘urta masalalari yuzasidan maslahatlar berish;

- Sug‘urta polisini ushbu Sug‘urta shartnomasida belgilangan muddat va tartibda berish;

- Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda Naf oluvchiga ushbu sug‘urta shartnomasida belgilangan tartib va miqdorda sug‘urta puli (qoplamasi, tovoni)ni to‘lash;

- Qarz oluvchi va uning mulkiy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilmasligi, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

- Qarz oluvchiga internet-resursidan tunu kun to‘siqlarsiz foydalana olish imkoniyatini yaratishi;

- O‘z faoliyatini amalga oshirish natijasida olingan Qarz oluvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning maxfiyligini ta‘minlashi shart.

15. Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchining huquqlari:

- Sug‘urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug‘urta qilish shartlari bilan tanishish;

- Sug‘urtalovchi bilan kelishilgan holda ushbu sug‘urta shartnomasiga qo‘srimchalar va/yoki o‘zgartirishlar kiritish;

- Sug‘urtalovchi tomonidan mazkur sug‘urta shartnomasi va avval tuzilgan boshqa shartnomalar bo‘yicha Naf oluvchi oldidagi sug‘urta tovonini to‘lash bilan bog‘liq majburiyatları belgilangan muddatdan 1 (bir) oyga kechiktirilsa, yangi sug‘urta polisi qabul qilishni bir tomonlama to‘xtatish va mazkur sug‘urta shartnomasini bekor qilish;

- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va sug‘urta shartnomasi shartlariga muvofiq mazkur sug‘urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish;

- Sug‘urta hodisasi yuz berganda, ushbu sug‘urta shartnomasida belgilangan tartibda Sug‘urtalovchiga sug‘urta tovonini to‘lash bo‘yicha ariza (talabnomasi) bilan murojaat qilish;

- Sug‘urta polisi bo‘yicha Sug‘urtalovchidan o‘z majburiyatlarini bajarilishini talab qilish;

- Sug‘urta polisi yo‘qolgan taqdirda, ushbu sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan shartlarda, sug‘urta polisi dublikati (hujjatning asli bilan teng huquqli nusxasi)ni olish;

- Mazkur sug‘urta shartnomasining amal qilish davrida Sug‘urtalovchining sug‘urta xizmatini ko‘rsatish darajasi Naf oluvchining ichki me‘yoriy hujjatlarida ko‘rsatilgan talablarga muvofiq kelmasa, Naf oluvchi yangi polis qabul qilishni bir tomonlama to‘xtatish;

- Sug‘urtalovchining veb saytida e’lon qilingan to‘lovga qobiliyatlilik normativlari bo‘yicha talablar bajarilmayotganligi aniqlansa, yangi sug‘urta polisini qabul qilishni bir tomonlama to‘xtatish;

- Mazkur sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan muddat mobaynida sug‘urta masalalari yuzasidan bepul maslahatlar olish;

- Ushbu sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan muddat mobaynida Sug‘urtalovchiga mazkur sug‘urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish haqida murojaat etish.

16. Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchining majburiyatları:

- Mazkur sug‘urta shartnomasining shartlari va tartibiga asosan Sug‘urtalovchiga ariza (talabnama) yuborish;

- Sug‘urta shartnomasiga asosan Sug‘urtalovchiga 6.3-bandida ko‘rsatilgan hujjatlarni taqdim qilish;

- Sug‘urta tovoni to‘langanligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani Qarz oluvchi va Sug‘urtalovchiga ularning so‘roviga ko‘ra taqdim etish.

17. Sug‘urtalovchi quyidagi zararlar uchun javobgar emas:

- Qarz oluvchi oldida rasmiy veb-sayt va mobil ilovalardan foydalanish bilan bog‘liq zararlari uchun.

18. E-polisning amal qilish muddati quyidagi holatlarda muddatidan oldin tugatiladi:

- Sug‘urtalovchi tomonidan mazkur oferta bo‘yicha Naf oluvchi oldidagi majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarilgan taqdirda;

- E-polisning amal qilishi muddatidan oldin tugatilgan taqdirda va Qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar muddatidan oldin bajarilganda, Qarz oluvchining yozma arizasiga ko‘ra, Sug‘urtalovchi e-polis bo‘yicha sug‘urta mukofotining qolgan summasining muddati o‘tmagan sug‘urta muddatiga mutanosib ravishda qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda 15 (o‘n besh) ish kuni ichida Qarz oluvchiga qaytarib beriladi.

IV. Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda tomonlarning harakatlari va sug‘urta tovonini to‘lash tartibi

19. Sug‘urta puli (qoplamsi, tovoni) Sug‘urtalovchi tomonidan Naf oluvchiga Qarz oluvchining kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda sug‘urta puli (qoplamsi, tovoni)dan oshmagan miqdorda to‘lab beriladi.

20. Sug‘urtalovchi tomonidan Qarz oluvchining kredit qarzdorligi qoplanishi bo‘yicha undiruvni kredit shartnomasiga muvofiq ta‘minot sifatida qabul qilingan garov sifatidagi mol-mulklarga, uchinchi shaxslar taqdim etgan kafillik va kafolatlariga qaratilgan yoki qaratmaganligidan qat‘iy nazar Naf oluvchiga sug‘urta tovoni to‘lab beradi.

21. Sug‘urta hodisasi yuzaga kelganda har bir kredit shartnomasi bo‘yicha alohida va qo‘yidagi tartibda to‘lanadi:

a) Kredit to‘lovlari to‘lov grafigi bo‘yicha 60 kundan ortiq vaqtida to‘lanmagan qismi bo‘yicha Sug‘urtalovchi Naf oluvchining birinchi talabiga binoan sug‘urta tovonini kredit shartnomasiga asosan kreditning muddati o‘tgan asosiy qarz va hisoblangan foizlarni to‘lab berish majburiyatini oladi;

b) Kredit qarzdorligi (asosiy qarz va hisoblangan foizlar)ni undirish haqida qabul qilingan qaror bo‘yicha qarzdorlikni undirish imkonni bo‘lmaganligi sababli Majburiy ijo organi tomonidan bankka qaytarilganda, Naf oluvchining birinchi talabiga binoan barcha asosiy qarz va hisoblangan foizlarni to‘liq to‘lab berish majburiyatini oladi.

Bunda, Naf oluvchi tomonidan Sug‘urtalovchiga ariza (talabnama) kiritilgan kundan boshlab kutish davri – 15 (o‘n besh) bank ish kunini tashkil qiladi.

22. Naf oluvchi sug‘urta hodisasi yuzaga kelganda, Bosh ofisi orqali Sug‘urtalovchiga sug‘urta tovonini to‘lash bo‘yicha kutish davridan keyin ariza (talabnama) yuboradi.

Arizada Qarz oluvchi (-lar) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi va arizaga quyidagi hujjatlarning nusxasi ilova qilinadi:

Mazkur oferta **21**-bandining “a” kichik bandi bo‘yicha:

- Ommaviy oferta;
- Sug‘urta polisi;

- Kredit shartnomasi va to'lov grafigi;
- Kredit qarzdorligi bo'yicha ma'lumotnoma;
- Mazkur oferta 21-bandining "b" kichik bandi bo'yicha:
- Ommaviy oferta;
- Sug'urta polisi;
- Kredit shartnomasi va to'lov grafigi;
- Kredit qarzdorligi bo'yicha ma'lumotnoma;
- Sud qarori va ijro varaqasi;
- Majburiy ijro organining qarori.

Naf oluvchi tomonidan ariza (talabnoma)ga qo'shimcha ravishda Qarz oluvchiga tegishli bankda mavjud bo'lgan boshqa hujjatlarni ham ilova qilinishi mumkin.

23. Naf oluvchi taqdim etgan hujjatlar asosida Sug'urtalovchi tomonidan 15 (o'n besh) ish kuni ichida sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma tuziladi, unda olingan barcha ma'lumotlar ko'rsatiladi va to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta puli (tovoni) miqdori belgilanadi. Dalolatnoma Naf oluvchi va Sug'urtalovchining mas'ul xodimlari tomonidan imzolanadi.

24. Naf oluvchiga sug'urta puli (qoplamasи, toponi) to'lovi sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan so'ng 3 (uch) ish kuni ichida amalga oshiriladi. Sug'urta puli (qoplamasи, toponi) to'langan kun bo'lib, Naf oluvchining bank hisobvarag'iiga pul mablag'lari kelib tushgan kun hisoblanadi.

25. Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta puli (qoplamasи, toponi)ni to'lash rad etilgan taqdirda, oferta shartlariga muvofiq tegishli hujjatlarni taqdim etgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kun ichida rad etish haqida xabar qilinishi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

26. Sug'urta puli (qoplamasи, toponi) Sug'urtalovchi tomonidan mazkur ofertaning 18-bandи bo'yicha belgilangan tartibda ixtiyoriy ravishda Naf oluvchiga to'lab berilmagan taqdirda, sug'urta puli (qoplamasи, toponi) amaldagi qonunchilik talablariga asosan, tegishli sudning qarori asosida majburiy tartibda undiriladi.

27. Naf oluvchi mazkur oferta bo'yicha belgilangan sug'urta puli (toponi)ni kredit bo'yicha yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan har qanday qarzdorlikka (komissiya to'lovlari, neustoykalar, sud xarajatlari va h.k.) yo'naltirishga va sug'urta puli (toponini) o'zi istaganicha ishlashiga haqli.

28. Sug'urta toponi to'langanidan so'ng, sug'urta toponi (qoplab berilgan mablag') doirasida qoplangan zarar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda da'vo qilish huquqi Naf oluvchidan Sug'urtalovchiga o'tadi.

29. Sug'urtalovchi tomonidan Naf oluvchining ko'rgan zarari uchun sug'urta toponi to'lab berilgandan so'ng, har qanday manbalardan kompensatsiya tarzida kelib tushgan pul mablag'lari Sug'urtalovchi va Naf oluvchi o'rtasida quyidagicha taqsimlanadi:

- Sug'urtalovchi kompensatsiya tarzida kelib tushgan mablag'dan Naf oluvchining ko'rgan zarari uchun to'lagan sug'urta toponi va shunga bog'liq xarajatlari miqdoridagi summani oladi;

- Ofertaning barcha shartlarini amalga oshirish bilan bog'liq har qanday xarajatlarni qoplash Qarz oluvchi va/yoki Sug'urtalovchining zimmasiga yuklatiladi.

V. Sug'urta summasi va sug'urta mukofotini hisoblash hamda to'lash tartibi

30. Mazkur oferta bo'yicha sug'urta puli – Qarz oluvchi va Naf oluvchi o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasi bo'yicha kreditning ta'minoti uchun taqdim etilayotgan sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta summasidan kelib chiqib belgilanadi.

31. Sug'urta puli har bir kredit shartnomasi bo'yicha alohida belgilanadi va kreditni sug'urta bilan ta'minlanadigan qismining 125 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

32. Sug'urta mukofoti kredit shartnomasining muddatidan va sug'urta pulidan kelib chiqib, quyidagicha belgilanadi:

a) 24 oygacha (24-oy ham kiradi) ajratilgan kreditlar bo'yicha har bir yil uchun yillik 1 foiz;

b) 24 oydan 36 oygacha (36-oy ham kiradi) ajratilgan kreditlar bo'yicha har bir yil uchun yillik 0,9 foiz;

c) 36 oydan yuqori muddatga ajratilgan kreditlar bo'yicha har bir yil uchun yillik 0,8 foiz.

33. Sug'urta mukofoti Qarz oluvchi tomonidan sug'urta shartnomasiga qo'shilish bo'yicha oferta tasdiqlangan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kunida kredit shartnomasining muddatiga mos ravishda to'liq to'lanadi.

34. Qarz oluvchi tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta mukofotining miqdori E-polisni rasmiylashtirish to‘g‘risidagi elektron arizaga kiritilgan ma‘lumotlarga muvofiq aniqlanadi.

35. Sug‘urtalovchi to‘langan sug‘urta mukofotini Qarz oluvchining yozma arizasiga ko‘ra, Naf oluvchining roziligi bilan (xat yoki onlayn tartibda yuborilgan API so‘roviga asosan) 15 (o‘n besh) ish kuni ichida quyidagi tartibda Qarz oluvchiga qaytarib beradi:

- Kredit shartnomasi bo‘yicha kredit mablag‘lari ajratilmasa to‘langan sug‘urta mukofoti to‘liq qaytariladi;

- Qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi bo‘yicha ajratilgan kredit mablag‘lari muddatidan avval so‘ndirilganda, sug‘urta mukofotining mazkur so‘ndirilgan muddatgacha tegishli qismini chegirib tashlagan holda qaytariladi.

VI. Shaxsga doir ma‘lumotlarni qayta ishlash shartlari

36. Qarz oluvchi E-polisni rasmiylashtirish to‘g‘risidagi elektron arizaga ma‘lumotlarni kiritishi bilan E-polisni amalga oshirish uchun o‘zining shaxsiga doir ma‘lumotlarni qayta ishlashga (yig‘ish, yozish, tizimlash, saqlash, foydalanish va bekor qilish) rozilik bergen deb xisoblanadi.

37. Shaxsga doir ma‘lumotlarni qayta ishlash Sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta shartnomasi/omaviy oferta bo‘yicha majburiyatlarini amalga oshirish maqsadida “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 2-iyuldaggi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. Yakunlovchi qoidalar

38. Ushbu ofertaning talablarini buzganlikda aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

39. Ushbu ofertada nazarda tutilgan yoki u bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha taraflar o‘rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelganda, taraflar kelishmovchilikni sudgacha hal etish choralarini ko‘rishi lozim.

40. Nizoni sudgacha hal etish imkoni bo‘lmasa, ular sug‘urtalovchi joylashgan yerdagi tegishli sudda O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga asosan hal etiladi.

41. Ushbu ofertada nazarda tutilmagan holatlar bo‘yicha vujudga kelgan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

“Sug‘urtalovchi”

“Kapital Sug‘urta” AJ

Manzil: Toshkent shahar M.Ulug‘bek tumani

Maxatma Gandi ko‘chasi, 44-uy.

H/r: 20216000300138037003

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

MFO: 01037, **STIR:** 200638670,

XTTUT: 65120 **Tel.:** 71-200-11-10

Bosh direktor **X.A.Bo‘rixo‘jaev**

(имзо)